



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

---

**АГПИ**  
**Научный вестник**



ANDIJON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI

## ADPI Ilmiy xabarnomasi

**№ 2 2026** **aprel**

**Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2181-4309**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-  
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy  
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga  
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik  
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida  
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida  
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

**Murojaat uchun:**

**Telegram:** ADPIilmiyxabarnoma\_bot

**Electron manzil:** [eduservis@gmail.com](mailto:eduservis@gmail.com)

**2/2**

### BOSH MUHARRIR:

**B.M. Rasulov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor

### Mas'ul muharrir:

**B.A. Sirojiddinov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

### TAHRIR KENGASHI

**S.Z. Zaynobiddinov**- O'zRFA akademigi

**I.R. Asqarov**- kimyo fanlari doktori, professor

**Sh.X. Yo'lchiyev**- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

**A.E. Zaynobiddinov**- biologiya fanlari doktori, professor

**B.X. Amanov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.A. Egamberdiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**M.V. Xalimova**- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Sh.J. Yusupova** - pedagogika fanlari doktori, professor

**Z.E. Azimova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.B. Artiqova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**V.A. Qodirov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**N.J. Abdullayeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.A. Tojiboyeva** - filologiya fanlari doktori, professor

**Sh.A. Xaitov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor

**A.G. G'aniyev**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.K. Pozilov** -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**T.T. Kaziyeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**U.A. Usmanova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**A.Xakimov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**M.T.Parpiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.A. Zapparov**- texnika fanlari nomzodi, professor

**U.A. Saliyev**- tarix fanlari nomzodi, professor

**M.I. Israil**- filologiya fanlari doktori, professor

**L.A. Muxammadjonova**- falsafa fanlari nomzodi, professor

**Sh.A. Xasanov** - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**X.T. Komilova** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**M.Sh. Alimova** - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Q. Ibaybullayev**- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D'.M. Muxtarov**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**S.N. Yusupova**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**B.M. Do'monov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.A. Tajimirzayev**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**K.S. Karimov** - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**A.A. Yuldashyev**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.J. Abduraxmonova** - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.M. Muydinova**- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**J.B. Qoraboyev**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**N.T. Mo'yidinov**- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Sobirova**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.B. Abdullayev**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**G'.Sh. G'ulomov**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**L.S. Yunusov** - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**N.S. Yaqubov**- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

**M.I. O'rinboyev**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**U.Sh. Uktamov** - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**M.G'. Ergasheva** - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

**Muharrirlar:**

**O. Karimov,**

**U. Malikova,**

**B. Mashrabova.**

# MUNDARIJA

## PEDAGOGIKA

<b>Artikova M.B., Turaboyeva M.R.</b> Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida .....	4
<b>Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q.</b> Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	9
<b>Hasanov Sh.A.</b> Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida .....	15
<b>Shabdullayeva L.O.</b> Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari .....	20
<b>Agzamova N.O.</b> Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri .....	30
<b>Matmusayev T.M.</b> Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi .....	35
<b>Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z.</b> Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi .....	42
<b>Alimov J.A., Shermuhammedov M.</b> Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish .....	47
<b>Axunov U.R.</b> Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash .....	51
<b>Shabdullayeva L.O.</b> Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari .....	55
<b>Karimova M.M.</b> Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni .....	62
<b>Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'.</b> Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari .....	67
<b>Hasanov Sh.A.</b> Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida .....	71
<b>Ismonov X.B., Azimjonova U.Z.</b> Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati .....	78
<b>Maxmudov A.O.</b> Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish .....	84
<b>Abduraxmonova D.Sh.</b> Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari .....	89
<b>Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U.</b> Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari .....	93
<b>Madaminova G.G.</b> Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari .....	100
<b>Mashrabova B.N.</b> Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language .....	106
<b>Nishonov N.A.</b> O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari .....	111
<b>Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L.</b> Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati .....	115
<b>Uraimov S.R., Xakimjonov M.X.</b> Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish .....	120
<b>Yoqubjonov N.G'.</b> Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarni shakllantirish .....	126
<b>Jo'rayeva D.I.</b> Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi .....	130

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<b>Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A.</b> Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar .....	135
<b>Raximova Z.X.</b> Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida .....	142
<b>Uzaqova N.M.</b> Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari .....	149
<b>Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M.</b> Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash .....	153
<b>Mutallibjonov U.I.</b> Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni .....	157

## ANIQ VA TABIIY FANLAR

<b>Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A.</b> Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	162
<b>Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш.</b> Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий .....	169
<b>Umarov A.V.</b> Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari .....	173
<b>Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.</b> Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты .....	179
<b>Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.</b> Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты .....	183
<b>Mamadaliyev B.K.</b> Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish .....	187
<b>Jamoldinova D.A.</b> Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi .....	192
<b>Abfazova K.S.</b> Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi .....	196

UO'K: 1174

## HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI QURISHDA HUQUQIY TARBIYANING O'RNI

**Mutallibjonov Usmonjon Ixtiyorjon o'g'li**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

### **Annotatsiya.**

*Mazkur maqolada huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonida huquqiy tarbiyaning tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Huquqiy tarbiya tushunchasining mohiyati, uning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, BMT Taraqqiyot dasturi va "Ijtimoiy Fikr" markazi ma'lumotlari asosida statistik tahlillar keltirilgan. Maqolada fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasi, huquqiy yordamga murojaat qilish amaliyoti, yoshlar bilan olib borilayotgan huquqiy tarbiya ishlari ko'lami raqamlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

### **Kalit so'zlar:**

*huquqiy tarbiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, statistika.*

### **Аннотация.**

*В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль и значение правового воспитания в процессе строительства правового государства и гражданского общества. Освещается сущность понятия правового воспитания, его роль в формировании правового сознания и правовой культуры. В исследовании представлены статистические анализы на основе данных Министерства юстиции Республики Узбекистан, Программы развития ООН и Центра «Социальные Идеи». В статье проанализирован уровень правовой грамотности граждан, практика обращения за юридической помощью, масштабы проводимой работы по правовому воспитанию молодежи на основе числовых данных. Кроме того, разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию системы правового воспитания.*

### **Ключевые слова:**

*правовое воспитание, правовое государство, гражданское общество, правовое сознание, правовая культура, правовая грамотность, статистика.*

### **Abstract.**

*This article scientifically and theoretically analyzes the role and significance of legal education in the process of building a rule-of-law state and civil society. The essence of the concept of legal education, as well as its role in shaping legal awareness and legal culture, is highlighted. The study includes statistical analyses based on data from the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, the United Nations Development Programme, and the 'Social Thought' Center. The article analyzes, using figures, the level of citizens' legal literacy, the practice of seeking legal assistance, and the scope of legal education activities conducted with youth. Additionally, scientifically based proposals and recommendations for improving the legal education system have been developed.*

### **Keywords:**

*legal education, rule-of-law state, civil society, legal awareness, legal culture, legal literacy, statistics.*

**KIRISH.** O'zbekiston mustaqillik yillarida huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olmoqda. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" sifatida belgilab, inson huquqlari kafolatlarini sezilarli darajada kengaytirdi [1]. Demokratik huquqiy davlat qurishning asosiy sharti nafaqat mukammal qonunlar yaratish, balki fuqarolarda ushbu qonunlarga nisbatan hurmat va ongli munosabatni, ya'ni huquqiy

madaniyatni shakllantirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi" da ta'kidlanganidek, "yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish" davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir [2]. Mazkur maqolaning maqsadi – huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, so'nggi yillarda bu borada erishilgan natijalarni statistik ma'lumotlar asosida yoritish va mavjud muammolarni aniqlashdan iborat.

### **ASOSIY QISM.** 1. Huquqiy tarbiya tushunchasining nazariy-huquqiy tahlili

Huquqiy tarbiya – bu shaxsda huquqiy bilimlar, ko'nikmalar, qadriyatlar va xulq-atvor normalarini shakllantirishga qaratilgan maqsadli va tizimli jarayondir. U insonning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksalishini ta'minlaydi. Huquqiy tarbiya jarayonida shaxs nafaqat huquqiy normalarni o'rganadi, balki ularga ichki ehtiyoj sifatida munosabatda bo'lishni, qonunlarga hurmat bilan qarashni va huquqiy faollik ko'rsatishni o'rganadi.

Huquqiy tarbiya tizimi quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

huquqiy ta'lim (bilim berish);

huquqiy targ'ibot (ishontirish);

huquqiy amaliyot (ko'nikma hosil qilish);

huquqiy o'z-o'zini tarbiyalash.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi 466-I-son qarori bilan tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" da huquqiy tarbiya va huquqiy ta'lim tizimini takomillashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan edi [3].

### 2. O'zbekistonda huquqiy tarbiya holatining statistik tahlili

So'nggi yillarda O'zbekistonda huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Quyida ushbu sohadagi asosiy statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilamiz.

#### 2.1. Aholining huquqiy savodxonlik darajasi

BMT Taraqqiyot dasturining 2025-yilda taqdim etilgan "Aholi huquqiy ehtiyojlarini baholash" hisobotiga ko'ra, O'zbekiston aholisining huquqiy savodxonlik darajasi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar qayd etilgan :

Respondentlarning 71 foizi o'z huquqiy bilimlarini "o'rtacha" deb baholagan;

Test savollariga 64 foiz to'g'ri javob bergan;

Shu bilan birga, respondentlarning uchdan bir qismi o'z muammolarini huquqiy bilimlarning pastligi bilan izohlagan .

Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, aholining huquqiy savodxonlik darajasi nisbatan o'rta darajada bo'lsa-da, huquqiy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi yetarli emas.

#### 2.2. Huquqiy yordamga murojaat qilish amaliyoti

UNDP hisobotiga ko'ra, fuqarolarning huquqiy yordamga murojaat qilish amaliyoti quyidagicha:

48,6 foiz fuqarolar huquqiy nizolarda birinchi navbatda mahallaga murojaat qiladi;

28,7 foiz ixtisoslashtirilgan davlat organlariga;

23,4 foiz nizoning ikkinchi tarafiga;

10,3 foiz sud organlariga murojaat qiladi.

### 2.3. Fuqarolarning huquqiy muammolari tarkibi

UNDP tadqiqotiga ko'ra, fuqarolar duch keladigan eng keng tarqalgan huquqiy muammolar :

Ijtimoiy ta'minot masalalari – 31,4 foiz;

Yer va uy-joy nizolari – 27,9 foiz;

Moliyaviy masalalar – 25,9 foiz .

Ombudsman ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi ikki yil ichida fuqarolar eng ko'p murojaat qilgan masalalar ijtimoiy himoya, uy-joy, moliyaviy barqarorlik va bandlik bilan bog'liq .

### 2.4. Yoshlar bilan olib borilayotgan huquqiy tarbiya ishlari

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra :

4 460 nafar yosh adliya organlari xodimlariga birlashtirilgan;

Ushbu yoshlarning 2 013 nafarining muammolari aniqlangan, shundan 1 653 tasi ijobiy hal etilgan;

Adliya vazirligi tomonidan televidenie, radio va ijtimoiy tarmoqlarda 1 960 dan ortiq chiqishlar amalga oshirilgan;

Mahallalarda 6 686 ta seminar va davra suhbatlari o'tkazilgan;

400 dan ortiq targ'ibot tadbirlari tashkil etilgan;

2 100 nafar yosh ishtirokida "Yoshlar huquqiy yarmarkasi" o'tkazilgan;

Mahallalardagi 226 000 dan ortiq xonadonlarga uyma-uy yurib, huquqiy tushuntirish ishlari olib borilgan;

208 ta tumanda (shaharda) maktablarda "Huquq darslari" tashkil etilgan .

Ombudsman tomonidan ham yoshlar huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan "Ombudsman maktabi" va "Ombudsman soati" loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar amalga oshirilgan hududlarda fuqarolarning murojaatlari sezilarli darajada kamaygan .

### 3. Huquqiy tarbiyaning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdagi roli

Huquqiy tarbiya tizimi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Huquqiy madaniyat – bu shaxsning huquqiy bilimlari, huquqqa bo'lgan munosabati va huquqiy xulq-atvorining uyg'unligidir. U nafaqat qonunlarni bilishni, balki ularga amal qilishni, huquqiy faollikni va huquqiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi [4].

Huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan fuqarolar oilaviy munosabatlarda, mehnat faoliyatida va boshqa ijtimoiy munosabatlarda qonun talablariga rioya qilishga intiladi, bu esa oilaviy ajrimlar, mehnat nizolari va boshqa ijtimoiy ziddiyatlarning kamayishiga olib keladi. Huquqiy tarbiya tizimi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim omilidir. Fuqarolar qonunlarni bilgan va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lgan jamiyatda huquqbuzarliklar kamayadi, ijtimoiy adolat qaror topadi. PF-5618-sonli Farmonda belgilanganidek, vazirlik va idoralar rahbarlari huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasida nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgardir.

Huquqiy tarbiya tizimi korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biridir. Fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati yuksak bo'lgan jamiyatda korrupsion xatti-harakatlarga nisbatan murosasiz munosabat shakllanadi. Har bir fuqaro o'z huquqlarini biladi va ularni himoya qila oladi, mansabdor shaxslar esa qonun doirasida faoliyat yuritishga majbur bo'ladi. "Ijtimoiy Fikr" markazi tomonidan o'tkazilayotgan "O'zbekistonda korrupsiyaga fuqarolarning munosabati" sotsiologik so'rovi aynan huquqiy savodxonlik va korrupsiyaga qarshi munosabat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Huquqiy tarbiya fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy bilimga ega bo'lgan fuqarolar o'z huquqlarini himoya qilish uchun birlashadilar, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etadilar, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda huquqiy tarbiya tizimi jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadigan muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda. Statistik ma'lumotlar tahlili quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Aholining huquqiy savodxonlik darajasi o'rtacha darajada (71 foiz o'z bilimini o'rtacha deb baholaydi, 64 foiz testlarni muvaffaqiyatli topshiradi), ammo huquqiy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi yetarli emas.

2. Fuqarolarning atigi 8,6 foizi professional advokatlarga murojaat qiladi, 74,5 foizi esa umuman yordam so'ramaydi. Bu huquqiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

3. Mahalla fuqarolar yig'inlari huquqiy masalalarda asosiy tayanch institut bo'lib qolmoqda (48,6 foiz murojaatlar). Bu mahallalarning huquqiy salohiyatini oshirish muhimligini ko'rsatadi.

4. Yoshlar bilan olib borilayotgan huquqiy tarbiya ishlari keng ko'lamli (4460 nafar yosh birlashtirilgan, 226 mingdan ortiq xonadonlar qamrab olingan), ammo bu ishlarning samaradorligini muntazam monitoring qilish zarur [5].

Olib borilgan tahlillar asosida huquqiy tarbiya tizimining samaradorligini oshirish va uning jamiyatdagi ta'sirini kuchaytirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchiidan, umumiy o'rta ta'lim tizimiga "Huquqiy savodxonlik" fanini majburiy kurs sifatida kiritish maqsadga muvofiq. Mazkur kurs 5-11-sinflar uchun bosqichma-bosqich, yosh xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqilishi lozim.

Ikkinchiidan, oliy ta'lim tizimida barcha mutaxassisliklar uchun huquqiy fanlar hajmini oshirish zarur. Texnik, tibbiy, iqtisodiy va boshqa nomutaxassislik yo'nalishlarida ham "Huquqiy asoslar" fanining soatlarini ko'paytirish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish lozim.

Uchinchiidan, 2026-yilga qadar barcha mahallalarda "Huquqiy maslahat markazlari" tashkil etish choralari ko'rish kerak. Ushbu markazlar fuqarolarga bepul huquqiy maslahat berish, hujjatlarni rasmiylashtirishda ko'maklashish, huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish vazifasini bajarishi lozim.

To'rtinchiidan, huquqiy tarbiya bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan mobil ilovalar va onlayn platformalar yaratish dolzarb vazifadir. "Huquqiy bilim" mobil ilovasi, Telegram-botlar, onlayn test tizimlari orqali fuqarolar istalgan vaqtda huquqiy maslahat olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Beshinchiidan, ommaviy axborot vositalarida huquqiy targ'ibot ko'lamini kengaytirish va ijtimoiy reklama roliklari ishlab chiqarishni ko'paytirish zarur. Ayniqsa, yoshlar orasida huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan qisqa metrajli videoroliklar, infografikalar va interaktiv kontentlar tayyorlash samarali natija beradi.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi Yangi O'zbekiston sharoitida huquqiy tarbiya tizimining samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan jamiyatgina demokratik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, barqaror taraqqiyotga erishishi va munosib kelajak qurishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish to'g'risida"gi Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi 466-I-son "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida"gi Qarori. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1997-y., 9-son.
4. Yangiboyev F.R. Yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – №46(2). – B. 43-45.
5. Habermas J. Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. – Cambridge: MIT Press, 1996.

